

Shogirdlar qalbida mangu barhayot Ustoz!



Ulug' ustoz, hazrati odam, benazir inson, Xalqaro axborotlashtirish akademiyasi akademigi, Leybnits nomidagi Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi

akademigi, kimyo fanlari doktori, professor Xasan Turobovich Sharipov hayot bo'lganida bugun 76 yoshni qarshi olar edilar.

Ulug' kimyogar- muhandis, texnolog olim, 50 yillik ilmiy-pedagogik tajribaga ega mutaxassis, fizik-kimyo va kristallo kimyo, noorganik va koordinatsion birikmalar spektroskopiyasi, Nodir va kamyob elementlar, metallurgiya sohasida rudalarni qayta ishlash texnologiyasi yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borgan Sharipov Xasan Turobovich 1947 yil 13 aprel kuni Toshkentda tavallud topgan.

Ulug' olim 1965-yilda maktabni tugatgach, Lomonosov nomidagi Moskva nozik kimyo texnologiyasi institutiga birinchi kursiga o'qishga qabul qilingan va 1971 yilda muvaffaqiyatli, a'lo darajada tugatgan.

1971-1974 yillarda esa mazkur M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Nozik kimyo texnologiyasi institutining aspiranti bo'lgan.

1974-1976 yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Elektronika institutida kichik ilmiy xodim lavozimida ilmiy faoliyatini davom ettirgan.

1976-1994 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Kimyo instituti kichik ilmiy xodimi, so'ngra esa katta ilmiy xodimi, hamda «Fizik-kimyoviy tadqiqotlari» laboratoriyasining mudiri lavazimida faoliyat yuritgan.

1994-1999 yillarda Maxsus qotishma Respublika tashkiloti ilmiy va loyihalash bo'yicha rahbar muovini sifatida faoliyat yuritgan.

1999-2000 yillarda O'zbekiston rangli metall loyiha instituti direktori sifatida ishlagan.

2000-2004 O'zbekiston Respublikasi maxsus qotishma tashkiloti rahbari sifatida faoliyat olib borgan.

2004-2006 yillarda Toshkent kimyo-texnologiya instituti «Kamyob, nodir, tarqoq metallar texnologiyasi va analitik kimyo» kafedrası professori sifatida ishlab kelgan.

2006-2011 yillarda shu institutining «Analitik kimyo va nodir metallar texnologiyasi» kafedrası mudiri lavozimida ishlagan.

2015-2021 yillarda I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi DUK "Fan va taraqqiyot" ilmiy ishlar bo'yicha rais muovini vazifasini bajargan.

2021 yildan hayotining so'nggi kunlariga qadar O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti direktori lavozimida faoliyat olib borgan.

Sharipov Xasan Turobovich 750 dan ortiq ilmiy ishlar, jumladan, 10 ta monografiya va ikkita darslik, 22 ta mualliflik guvohnomasi, hamda bir nechta O'zbekiston Respublikasi patentlari muallifi hisoblanadi.

Kimyogar olimning ilmiy ishlari dunyoning yuqori reytingli jurnallarida, jumladan, Acta Crystallographica, Physical Review, Phys; Solid State, Materials Science and Engineering. Application, J. of Thermal analysis, Ferroelectric, Journal of environmental science and health, Journal of UCTM, Austrian Journal of Technical and Natural Sciences, SSSR Fanlar akademiyasining ma'ruzalari, SSSR Fanlar akademiyasi materiallari, Optika va spektroskopiya, Amaliy spektroskopiya jurnali, Kristallar spektroskopiya, Strukturaviy kimyo jurnali, Noorganik kimyo jurnali, Koordinatsion kimyo kabi nashrlarda chop etilar edi. Sharipov Xasan Turobovichning rahbarligida va ishtirokida Respublika metallurgiya sanoati uchun yigirmadan ortiq fan nomzodi va 10 nafar fan doktori, ko'plab bakalavr va magistrilar tayyorlangan.

Ulug' ustoz Xasan Turobovich Sharipov "O'zbekiston kimyo" jurnali muharriri, "O'zbekiston konchilik xabarnomasi", "Kimyo va kimyo texnologiyasi", "Fan va innovatsion ishlanmalar", "Kompozit materiallar" jurnallari va har yili nashr etiladigan "Yangi materiallar" jurnallari tahrir hay'ati a'zosi sifatida faoliyat olib borgan. MDH mamlakatlari Xalqaro Fanlar akademiyasining "Yangi materiallar" ilmiy kengashi a'zosi sifatida ishlab kelgan.

Sharipov MDH mamlakatlari va uzoq xorijdagi ilmiy va oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan o'zaro ilmiy hamkorlikda xalqaro darajadagi loyihalarni g'olibi sifatida tanilgan olim hisoblandi. Ko'pgina xalqaro darajadagi, hamda davlat mukofotlarni qo'lga kiritgan, jumladan Mendeleev nomidagi, O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasining diplomi va mukofoti bilan hamda "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10 va 30 yilligi" yubileyida esdalik nishoni bilan (2001, 2021 yillar), qator ko'krak nishonlari, jumladan "Konchi" 3 darajali "Shon-sharaf" (2017), 2 darajali "Mehnat faxriysi" (2021), fan va ixtirochilik sohasidagi xizmatlari uchun Albert Nobel medal, "Ilmiy maktab asoschisi" faxriy unvoni ulug' olimning ilmiy ishlanmalari, ilmiy va ijodiy faoliyati samarasida qo'lga kiritilgan va munosib taqdirlangan.

Xasan Turobovich ko'plab ilmiy va tashkiliy ishlarni amalga oshirgan olim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Kimyo instituti qoshidagi fan doktori ilmiy darajasini berish bo'yicha qo'shma ixtisoslashtirilgan kengash raisining o'rinbosari, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ilmiy kengashning noorganik, analitik, organik va fizik kimyo mutaxassisliklari bo'yicha fan doktori ilmiy darajasini berish bo'yicha ilmiy kengash a'zosi va raisi sifatida ishlab kelgan.

2021 yilda Leybnits nomidagi Yevropa tabiiy fanlar akademiyasining akademigi

etib saylangan.

Ustozning O'zRFA Umumiy va noorganik kimyo institutiga qayta ishga kelgani davrida o'zi bilan birga ilmiy muhit, ishchanlik kayfiyati, fayz va o'zgacha shukuh bilan kirib kelgani mazkur institut xodimlarini ishchanlik qobiliyatini yanada oshirgani ayni haqiqat. Sababi ulug' yoshda va ayni dam olish kerak pallada ustoz ertadan kechgacha tinim olmasdan g'ayrat bilan ishlagani ilmiy xodimlar uchun o'rnak vazifasini o'tadi. Ulug' ustozdan o'rganilishi lozim bo'lgan ilm, egallanishi shart bo'lgan bilimlar hali ko'p edi.

Ulug' kimyogar olim, xalqaro darajadagi akademik, kimyo fanlari doktori, professor, hazrati inson Hasan Turobovich Sharipov 2022 yil 14 noyabrda Toshkent shahrida vafot etgan.

Olim inson vafot etmaydi, shunchaki uning ikkinchi umri o'zidan meros qolgan shogirdlarining ilmiy ishlanmalarida qayta tug'iladi. Bizni tark etgan ustozdek benazir inson, kamtar va kamsuqum olim, uzoq yillar davomida Umumiy va noorganik kimyo instituti jamoasi unutmaydi, ustoz ruhi va yodi shogirdlar va ilmiy xodimlar qalbida abadiy mangu barhayot saqlanadi.

Muborak oyda qo'llarimiz kaftini keng ochib Yaratgandan ustozimiz uchun jannatning eng go'zal va betakror go'shasini duo ila so'raymiz. Oxiratingiz obod bo'lsin ustoz!

Ustozning shogirdlari kimyo fanlari doktori, professor Azizov Tohir Azizovich, kimyo fanlari doktori, professor Kadrova Zuhra Chingizovna, kimyo fanlari doktori, professor Daminova Shaxlo Sharipovna, texnika fanlari doktori, professor Sharafutdinov Ulug'bek Ziyatovich, texnika fanlari doktori, professor Kamolov Tursunboy Ochilovich nomidan O'zRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti bosh ilmiy xodimi, t.f.d., prof. Jumaeva Dilnoza Jo'raevna hamda t.f.n., katta ilmiy xodim Pirimov To'ychi Jumaevich.